

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**KADIROVA XURSHIDA BATIROVNA**

**EVFEMIZM, DISFEMIZMLAR TIPOLOGIYASI VA BADIY TARJIMASI  
(O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO'K: 811.512.133'255.2+811.161.1'255.2

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание докторской диссертации (DSc)

Contents of the doctoral dissertation (DSc)

**Kadirova Xurshida**

Evfemizm, disfemizmlar tipologiyasi va badiiy tarjimasi (o'zbek va rus tillari misolida)..... 3

**Кадирова Хуршида**

Типология и художественный перевод эвфемизмов, дисфемизмов (на примере узбекского и русского языков)..... 27

**Kadirova Khurshida**

Typology and literary translation of euphemisms, dysphemisms (on the example of uzbek and russian languages)..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 66

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

KADIROVA XURSHIDA BATIROVNA

EVFEMIZM, DISFEMIZMLAR TIPOLOGIYASI VA BADIY TARJIMASI  
(O'ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Fil306 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Majidova Ra'no Urishevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Siddiqova Iroda Abduzuhurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "20" 12 soat 900 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (315 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "4" 12 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "4" 12 dagi raqamli registr bayonnomasi).



**Sh.S.Sirojiddinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., akademik

**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**N.Z.Normurodova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon chog'ishtirma tilshunosligi va tarjimashunosligida o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab OTMlarda kurs va fanlar tashkil etilib, bu sohaning ta'limiga ham yo'l ochildi. XXI asrga kelib tadqiqotlarning salmog'i oshdi va tarjimaning mashina tarjimasi, sinxron tarjima, badiiy tarjima, ilmiy-texnik tarjima kabi tarmoqlari yuzaga kelib, ularni tadqiq qilish ham yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda madaniyatlararo va irqalararo kommunikatsiyaning rivojlanishi oshib borayotgan bir vaqtda badiiy tarjima muammolarining paydo bo'lish xususiyatlari va yechimlari ko'plab ilmiy maqsadlarga mavzu bo'lmoqda. Turli anjumanlarda, jumladan, xalqaro darajada muhokama qilinib, an'anaviy tilshunoslik, etnolingvistik, psixolingvistik, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi qatorida munozara obyektiga aylannoqda. Umuman, har bir badiiy adabiyotning tur va xillari, uslub va usullari rang-barang bo'lgani kabi, tarjimaning ham xilma-xil tadbirlari, yo'llari mavjud bo'ladi. Demak, tarjimashunoslik qirralarini kashf etishdagi amallar ham turlicha va uning tasnifiy belgilarini boyitish ham tadqiqotchining bir maqsadi bo'lishi kerak. Biroq bu ishlarning aksariyati leksik sath doirasida bajarilgan bo'lib, nutqiy birliklar, ko'chimlar bilan bog'liq tarjimashunoslikka oid tadqiqotlar sirasi yetarli emas, uni turli yondashuvlar bilan o'rganish hali o'z navbatini kutmoqda. Evfemik va disfemik hodisalarning tarjimasiga oid yirik ishlar sanoqli bo'lib, uning tarjima jarayonidagi mezonlari, qoliplari, talablari yetarlicha ishlanganicha yo'q. Biroq ushbu ko'chimning har bir milliy tilda maxsus o'rganilishi natijasida katta yutuqlarga erishilgan, deyish mumkin. Hodisa boshqa lisoniy birliklar kabi serqirra bo'lganligi sababli, ularning turli qirralariga e'tibor qaratilgan bo'lib, qo'lga kiritilgan natijalar ham har xil. Bu turli-tumanliklar qarama-qarshidek tuyulsa-da, aslida bir-birini to'ldirishga xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

Dunyo tarjimashunosligida bu borada qilingan ishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu ikkinchi jahon urushining tugashi bilan odamlar va xalqlararo axborot almashinuvining keskin o'sishi bilan bog'liq. Aslini olganda, bunday axborot xuruji butun dunyoda yuz berdi. Sinxron tarjima, kinofilmlar, radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlarning tarjimasi shular jumlasidan. Endilikda professional tarjimonlarni "ustoz-shogird" usuli bilan tayyorlashning o'zi yetarli bo'lmay qolgan edi. Butun dunyoda tarjima maktablari, OTM fakultetlari, universitet bo'limglari kabilarni ochishni davr taqozo qila boshladi. Tarjima nazariyasi to'laqonli ilm sifatida tilshunoslar e'tiborini torta boshladi. Shunga ko'ra ilmiy tadqiqot obyektlari yaratilgani uchun uni tahlilga tortish, ilmiy xulosalar chiqarish tilshunoslar va tarjimashunoslar oldida muhim vazifa bo'lib qoldi. Shuni aytish mumkinki, badiiy tarjima keng qamrovli soha sifatida olimlarning unga turlicha yondashuvi, nuqtayi nazarlari, ilmiy xulosalari uchun yetarli bazasi bilan qiziqarli fandır. Uni lingvistik jihatdan turli aspektda tadqiq etish, ya'ni nutqiy-kommunikativ, psixologik, etimologik, madaniy, falsafiy, diniy yondashuv asosida o'rganish zarurati mavjud. Rus tilshunosligida evfemizm hodisasining lingvistik tadqiqi ancha ilgari lab, qiyosiy yondashuvga, tarjimashunoslikka keng yo'l ochib berdi. XXI asrdan boshlab birgina rus tadqiqotchilari tomonidan evfemizm mavzusi

doirasida 20 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangani bu hodisani o'rganish rivojlanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda ham iks-femizmgga doir tarjimashunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik bo'yicha monografik planda qilingan ishlar 2000-yillardan keyin paydo bo'ldi. Ularning tarjimasini o'rganish, usul va modellarini tuzish, madaniyatlararo, tillararo muqoyasa qilish, boshqa tildagi ifodasiga jiddiy yondashish endi davr talabi va bu masala tarjima nazariyasida ikki genetik va struktur jihatdan turlicha bo'lgan tillarni tadqiq etish bilan bog'liq dolzarblik kasb etadi. Evfemizm va disfemizm tarjimashunoslikka nisbatan o'zbek tilshunosligida kengroq o'rganilgan, bugungacha olimlar tomonidan uning ko'proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan. Uning yondosh hodisalarga munosabati, til sathidagi o'rni belgilanganligi, lisoniy va nutqiy evfemizmlar farqlanib, evfemik ma'no kategoriyalari funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilinganligi ahamiyatli. Evfemizm va disfemizm hodisasi kam o'rganilgan mavzu bo'lishiga qaramasdan tilshunoslik nuqtayi nazardan lisoniy belgilari, muayyan tilning nutqiy jarayonida sodir bo'lish holatlari o'rganilishiga e'tibor qaratilmoqda. Uni o'zga til bilan muqoyasa qilish, boshqa tilda ifoda etish mezonlari, variantlari, muqobillarining ishlab chiqilishi tarjimashunoslikning oldida turgan vazifalardan biridir. Shunday ekan, bu ikki ko'chimlarning lingvokulturologik, pragmatik aspektlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Aynan evfemik va disfemik birliklarining tarjimasida hamda tipologik tadqiqi bilan bog'liq yirik monografik ilmiy ishlar jahonning turli yetakchi ilmiy markazlari, jumladan Volgograd davlat ijtimoiy-pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi)da xitoy va rus tillarning evfemik va disfemik birliklari lingvomadaniy tadqiqi<sup>2</sup>ga, Tojikiston davlat huquq, tijorat va siyosat universiteti (Tojikiston)da ingliz va tojik tillari evfemizmlarining leksik-semantik tadqiqi<sup>3</sup>ga bag'ishlangan ishlar amalga oshirilgan. Astraxan davlat universiteti (Rossiya)da siyosiy matnlardagi evfemik va disfemik birliklar tarjimasida<sup>4</sup>, Tomsk davlat Milliy tadqiqot universiteti (Rossiya)da axborot materiallaridagi evfemizmlar tarjimasining qiyinchiliklari<sup>5</sup> muammo sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xeylunzyan universiteti (Xitoy)da evfemizm va disfemizmning namoyon bo'lishi<sup>6</sup>, Bog'dod universiteti (Iroq)da uning milliy xoslanishi va tilda paydo bo'lishi<sup>7</sup>, Javoharla'l Neru nomidagi Universitet<sup>8</sup> (Hindiston)da iks-femik birliklarning media diskursda aks etishi haqida ilmiy-tahliliy ishlar olib birilgan. Bundan tashqari turli tizimdagi tillar bilan bog'liq jiddiy ilmiy ishlar tadqiq etilgan, jumladan: xitoy va o'zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston)<sup>9</sup>, fransuz va rus tillarida evfemiya hamda disfemiyaning namoyon bo'lishi (Tyumen davlat universiteti, Rossiya)<sup>10</sup>, evfemizatsiya va disfemizatsiyaning ingliz va rus siyosiy diskursida lingvopragmatik voqelanishi (Adigei davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi)<sup>11</sup> tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Jahon tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligi doirasida iks-femik birliklarning tadqiqi natijalari turli ilmiy anjumanlarda, jumladan: ingliz tilidagi

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: [www.utexas.edu](http://www.utexas.edu), [www.berkeley.edu](http://www.berkeley.edu), [www.northwestern.edu](http://www.northwestern.edu), [www.bu.edu](http://www.bu.edu), [www.ecu.edu.au](http://www.ecu.edu.au), [www.unice.fr/en](http://www.unice.fr/en), [www.u-bordeaux.com](http://www.u-bordeaux.com), [www.lang.ox.ac.uk](http://www.lang.ox.ac.uk), [www.english.pku.edu.cn](http://www.english.pku.edu.cn), [www.sophia.ac.jp/eng](http://www.sophia.ac.jp/eng), [www.u-tokyo.ac.jp.en](http://www.u-tokyo.ac.jp.en), [www.bsu.edu.az](http://www.bsu.edu.az), [www.msu.ru](http://www.msu.ru), [www.bashedu.ru](http://www.bashedu.ru), [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz), [www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz).

<sup>2</sup> Чжан Чань. Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологический и лингвопрагматический аспекты: Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Волгоград, 2013. – 26 с.

<sup>3</sup> Хакимова М.М. Лексико-семантический анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. – Худжанд: 2018. – 26 с.

<sup>4</sup> Манченко Е.С. К вопросу о маскировке действительности в политических корректных эвфемизмах в переводе. Языкознание. Гуманитарные исследования. 2017. №3 (63). – С. 27–36.

<sup>5</sup> Морева А.В., Грекова О.М. Особенности и трудности перевода эвфемизмов (на материале новостных статей ВВС) // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. 2018. №4. С. 90–102.

<sup>6</sup> Фен Гуйпин. Исследования политических эвфемизмов в Китае. Feng Guiping. Political Linguistics. 2019. No 4 (76). P. 141–148.

<sup>7</sup> Hadi, Nahla. Об эвфемизме и табуированном эвфемизме в арабском языке. On Euphemism, Taboo Euphemism in Arabic. التطف والتلطف المحضور في اللغة العربية. SCIENCE AND WORLD – International scientific journal № 6 (34), 2016, Vol. III. 102–108.

<sup>8</sup> Суман Беннивал. Эвфемизация войны в медийном дискурсе: на материале из русского, английского и хинди. // Жизнь языка в культуре и социуме – 6. Материалы конференции. Москва, 26–27 мая 2017 г. – 342 с. – С. 269–270.

<sup>9</sup> Шамсиева Ш.К. Хитой ва ўзбек тилларидаги маънавий эвфемизмларнинг лингвомаданий тадқиқи. Автореф. дисс... фил. фан. бўйича фалс. док. (PhD)... – Тошкент, 2020. – 53 б.

<sup>10</sup> Чепорухина М.Г. Эвфемия и дисфемия во французском и русском языках (на материале интерактивных новостных статей); 10.02.20 – Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук, – Тюмень, 2022. – 26 с.

<sup>11</sup> Цатурян М.Ш. Лингвопрагматика эвфемизации и дисфемизации англоязычного и русскоязычного политического дискурса. Автореф...дисс. канд. фил. наук, 10.02.19. – Майкоп: 2020. – 24 с.

evfemizmlar xususida<sup>12</sup> (Irkutsk milliy tadqiqot texnika universiteti, Rossiya Federatsiyasi), o'zbek, ingliz, fransuz tilidagi evfemizmlarining semantik xoslanishi haqida<sup>13</sup> (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston), tibbiyotga oid matnlarda uchraydigan evfemizmlarning tarjimasi haqida<sup>14</sup> (Boshqirdiston davlat universiteti, Rossiya) e'lon qilingan. Evfemik va disfemik ko'chimlarning siyosiy diskursda voqelanishi<sup>15</sup> (Belgorod davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya), OAV tilidagi disfemizmlarning axborotni buzish vositasi sifatidagi talqini<sup>16</sup> (Samara, Rossiya)ga oid ilmiy munozaralar ham mavzu doirasidagi tahliliy natijalar jumlasidandir.

Jahon tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida bakalavr, magistrlik va kurs ishlari kabi quyi bosqichdan boshlab bu birliklarga bog'ishlangan tipologik izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan: arab va rus tillaridagi evfemik va disfemik birliklar tarjimasi (Ayn-Shams universiteti, Al-Asun fakulteti, slavyan tillari kafedras, Misr)<sup>17</sup>, rus va ingliz tillarining tibbiyotga oid evfemik birliklar tarjimasi (Yevroosiyo lingvistika instituti filiali Moskva davlat lingvistika universiteti, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya kafedras, Rossiya)<sup>18</sup>, reklama matnidagi mazkur birliklar tarjimasi (K.D.Ushinskiy nomidagi Yaroslavl davlat pedagogika universitetining Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedras, Rossiya)<sup>19</sup> masalalari yosh tadqiqotchilar tomonidan o'rganishi, mavzuning dolzarb, qiziqarli va dimo yangi ekanligidan dalolat beradi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida tarjimashunoslikka bog'ishlangan ishlar sirasiga L.S.Barxudarov<sup>20</sup>, S.Vlaxov va S.Florin<sup>21</sup>, Y.Y.Nayda<sup>22</sup>, N.K.Garbovskiy<sup>23</sup>larning ishlarini kiritish mumkin. Evfemizmlarning semantik, struktur, lingvokulturologik xususiyatlariga, leksikografik

muammolariga bog'ishlangan ishlar ham O.V.Nazdracheva<sup>24</sup>, N.E.Rebrova<sup>25</sup>larning maqolalarida o'z aksini topgan.

Evfemik birliklar tarjimasi bilan bog'liq mavzularda I.N.Nikitina<sup>26</sup>, N.S.Moxovikova<sup>27</sup>, Chjan Chan<sup>28</sup>, V.V.Galaburda<sup>29</sup>, O.A.Zinina<sup>30</sup>, I.A.Arjanova hamda I.I.Goryayeva<sup>31</sup>, I.I.Ivanova va A.Z.Gaynutdinova<sup>32</sup>, D.A.Klimova, Y.A.Zuyeva<sup>33</sup>, A.P.Kudryashova<sup>34</sup>lar ilmiy mulohazalar yuritgan. Albatta, bunday birliklar, asosan, siyosiy diskurs va OAV nutqida faolligi sababli, tahliliy ishlarning askariyati mazkur soha bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. I.G.Ignatyeva, Y.L.Buylova<sup>35</sup>, M.Y.Brodskiy<sup>36</sup>, A.V.Moreva hamda O.M.Grekova<sup>37</sup>, Y.S.Baskova<sup>38</sup>, R.A.Safina va D.R.Xadeyeva<sup>39</sup>larning ilmiy tahlillari shular jumlasidan. O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizmlar semantik xususiyatlarining tadqiqiga bo'lgan urinish L.T.Xoliyarov<sup>40</sup>, S.Xajiyev<sup>41</sup>,

<sup>24</sup> Наздрачева О.В. Эвфемизмы // Вестн. ПГЛУ. – 2008. – № 4. – URL: <http://www.docme.ru/doc/352931/o.v.-nazdracheva-e-vfemizmy-e-vfemizmy-%E2%80%93-stilicheski>.

<sup>25</sup> Реброва Н.Е. Лексикографический статус эвфемизмов как языковых средств репрезентации лингвокультурной информации (на материале английского и немецкого языков). 10.02.19. Дисс. канд. филол. наук. – Ярославль, 2020. – С. 209.

<sup>26</sup> Никитина И.Н. Проблема перевода эвфемизмов экономического дискурса (на материале английского и русского языков) // Гуманитарные научные исследования. 2013. № 11 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2013/11/5110>.

<sup>27</sup> Моховикова Н.С. Проблематика перевода эвфемизмов с китайского языка на русский: на материале религиозного дискурса тематической группы “смерть” // Актуальные вопросы переводоведения и практики перевода. Международный сборник научных статей. Том Выпуск 4. Нижний Новгород, 2014. – Нижний Новгород: ООО “АЛЬБА”, 2014. – С. 107–113.

<sup>28</sup> Чжан Чан. Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологический и лингвопрагматический аспекты. Автореф. дисс. кандид. филол. наук. – Волгоград, 2013. – 24 с.

<sup>29</sup> Галабура В.В. Трудности перевода и интерпретации эвфемизмов. // Языковая личность и перевод: материалы V Междунар. науч.-образоват. форума молодых переводчиков, посвящ. 100-летию Белорус. гос. ун-та, Минск, 12–13 нояб. 2020 г. / Белорус. гос. ун-т; редкол.: С.В.Воробьева (гл. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2020. – С. 6–8.

<sup>30</sup> Зинина О.А. Прагматический аспект эвфемизмов и способы их перевода. // Профессиональная коммуникация: актуальные проблемы преподавания и исследования. Коллективная монография. – Тамбов: ТРОО “Бизнес-Наука-Общество”, 2016. – С. 82–86.

<sup>31</sup> Аржанова И. А., Горяева И. И. Трудности перевода английских эвфемизмов в новостных текстах // Огарёв-Online. 2022. №7 (176). – С. 1–6.

<sup>32</sup> Иванова И.И., Гайнутдинова А.З. Особенности перевода эвфемизмов англоязычной прессы (на материалах издания “The Guardian”) Terra Linguae. Сборник научных статей. 2019. – №6. – С. 69–74.

<sup>33</sup> Климова Д.А., Зуева Е.А. Особенности перевода эвфемизмов в современных немецкоязычных СМИ. // Филологический аспект: №6 (38) Июнь, 2018. – С. 93–100.

<sup>34</sup> Кудряшова А.П. Процессы образования и функционирования эвфемизмов в семантических полях “смерть”, “болезнь”, “возраст”: на материале современных русского и немецкого языков: дисс. канд. филол. наук: 10.02.19. – Саратов: 2002. – 236 с.

<sup>35</sup> Игнатьева И.Г., Буйлова Ю.Л. Стёртые эвфемизмы в политическом дискурсе: лингвокогнитивный и переводческий аспект. // Магия инно: новые измерения в лингвистике и лингводидактике. Сборник научных трудов. В 2 томах. Том 1. – 2017. – С. 422–427.

<sup>36</sup> Бродский М.Ю. Политический дискурс и перевод // Политическая лингвистика. – 2011. № 1. – С. 103–111.

<sup>37</sup> Морева А.В., Грекова О.М. Особенности и трудности перевода эвфемизмов (на материале новостных статей ВВС) // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. 2018. №4. С. 90–102.

<sup>38</sup> Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ: на материале русского и английского языков: дисс. канд. филол. наук: 10.02.19. – Краснодар: 2006. – 162 с.

<sup>39</sup> Сафина Р.А., Хадеева Д.Р. Семантические механизмы эвфемизации политического дискурса в русском и немецком языках. // Ученые записки Казанского университета. Гуманитарные науки. Том 157, кн. 5. 2015. 112–120 с.

<sup>40</sup> Холияров Л.Т. (2022). Немис ва ўзбек тилларидаги эвфемизмларнинг функционал семантик хусусиятлари. *Архив научных исследований*, 2 (1), извлечено от <https://journal.issue.uz/index.php/archive/article/view/1435>

<sup>41</sup> Хажиев С. Эвфемизмларнинг hozirgi zamon ўзбек, француз, ingliz tillaridagi funksional semantik xossalari. // “Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari: tarjima nazariyasi va amaliyoti,

<sup>12</sup> Авдеева И.Р., Синёва Ю.О. Эвфемизмы в английском языке. // В мире языка и культуры: актуальные вопросы и перспективы современной науки. Материалы Международной научно-практической конференции молодых учёных (Иркутск, 17 мая, 2017 г.). – Иркутск, 2017. – С. 3–10.

<sup>13</sup> Хажиев С. Эвфемизмларнинг hozirgi zamon ўзбек, француз, ingliz tillaridagi funksional semantik xossalari. // “Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari: tarjima nazariyasi va amaliyoti, lingvokulturologiya va turizm soxalarining uzviy bog'liqligi” mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari tўplami. – Toshkent, 2019. – 268 б. – Б.124–126.

<sup>14</sup> Яркиева С.Э. Способы перевода эвфемизмов в медицинских текстах. // IX материалы всероссийского научного семинара (г. Уфа, 30 ноября 2017 г.). – Уфа: РИЦ БашГУ, 2017. – С. 39–45.

<sup>15</sup> Орлова Е.А. Эвфемизмы и дисфемизмы в политических текстах британских СМИ / Е.А. Орлова // Лексикография и коммуникация, 2018: сб. материалов IV междунар. науч. конф. – Белгород, 26–27 апр. 2018 г. / М-во образования и науки РФ, НИУ БелГУ; отв. ред. А.П. Седых. – Белгород, 2018. – С. 133–136.

<sup>16</sup> Навасартян Л. Г. Дисфемизмы как средство искажения информации в печатных СМИ / Л.Г.Навасартян. – Текст: непосредственный // Современная филология: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Самара, март 2017 г.). – Самара: ООО “Издательство АСГАРД”, 2017. – С. 88–90.

<sup>17</sup> Мухаммед Хассен Саммани Мансур. Эвфемизмы в современном русском языке и способы их перевода на арабский язык. Дисс.маг.филол.наук. – Каир, 2015. – 255 с.

<sup>18</sup> Петунни Ю.Е. Способы перевода эвфемизмов в медицинском дискурсе. Квалиф.раб. – Иркутск: ФГБОУ ВПО “ИГЛУ”, 2016. – 52 с.

<sup>19</sup> Вишневецкая П.Р. Передача эвфемистической лексики при переводе рекламных текстов с английского на русский язык. Курс.раб. – Ярославль, 2017. – Б. 48.

<sup>20</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод. / Л.С. Бархударов. – М.: Международные отношения, 1975. – 465 с.

<sup>21</sup> Влахов С. Флорин С. Непереводимое в переводе. / С. Влахов. С.Флорин. – М.: Международные отношения, 1986. – 416 с.

<sup>22</sup> Найда Ю.Я. К науке переводить. / Ю.Я. Найда. – М.: Аспект пресс, 2000. – 266 с.

<sup>23</sup> Гарбовский Н. К. Теория перевода. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004. – 544 с.

G.Y.Shamuratova<sup>42</sup>larning ishlarida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, Sh.Q.Shamsiyeva<sup>43</sup>, Y.A.Sattarova<sup>44</sup> ham bu birliklarni monografik darajada ilmiy tahlilga tortgan. O'zbek tilidagi evfemizmlarning sohaviy diskursda qo'llanilishi A.Omonturdiyev<sup>45</sup>dan keyin N.I.G'aybullayeva<sup>46</sup>ni ko'rsatish mumkin.

Disfemizmlarning tarjimashunoslik va chog'ishtirma tilshunoslikdagi obyekt sifatidagi o'rni ham V.A.Petrova<sup>47</sup>, O.I.Agafonova, M.S.Belozeroва, Y.F.Bex<sup>48</sup>, A.S.Stasyuk<sup>49</sup>, I.G.Ishenko<sup>50</sup>, I.R.Gilyazova<sup>51</sup>, O.V.Obvinseva<sup>52</sup>, M.G.Cheporuxina<sup>53</sup>larning ishlarida o'z aksini topadi. Bu birliklar ham, asosan, ijtimoiy-siyosiy nutqda faolligi sababli, Y.A.Orlova<sup>54</sup>, I.A.Kasatova<sup>55</sup>, O.D.Pastuxova<sup>56</sup>, O.V.Obvinseva<sup>57</sup>lar evfemik birliklar bilan yondosh hodisa sifatida tahlilga tortadilar. Asosan, dunyo tilshunosligida disfemik birliklarning nutq sathidagi voqeligiga e'tibor qaratgan tadqiqotchi sifatida Y.F.Bex<sup>58</sup>ni ko'rsatish

лингвокультурология в туризм соҳаларининг узвий боғлиқлиги” мавзусидаги Республика илмий анжумани материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. – Б. 124–126.

<sup>42</sup> Шамуратова Г.Ю. О проблемах перевода эвфемизмов с немецкого языка на узбекский язык / Г. Ю. Шамуратова. – Текст: непосредственный // Филология и лингвистика. – 2017. – № 2 (6). – С. 84–85.

<sup>43</sup> Шамсиева Ш.К. Хитой ва ўзбек тилларидаги маиший эвфемизмларнинг лингвомаданий тадқиқи. Автореф. дисс... филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD)... – Тошкент, 2020. – 53 б.

<sup>44</sup> Саттарова Е.А. Эволюция эвфемистического значения (на примере сопоставления эвфемизмов русского и узбекского языков) // Herald pedagogiki Nauka i Praktika Volume-2, № 6, October. – 2022. P. 31–42; Саттарова Е.А. Несовместимость эвфемизмов русского и узбекского языков как основное препятствие для лингвокультурологического сопоставления // Проблемы Науки. 2020. №7 (152). – С. 63–67.

<sup>45</sup> Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – 128 б; Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.

<sup>46</sup> Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида). 10.00.01 – Ўзбек тили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 51 б.

<sup>47</sup> Петрова В.А. Функциональная специфика эвфемизмов и дисфемизмов в паллиативном дискурсе. // Актуальные проблемы современной гуманитарной науки: отечественные традиции и международная практика. Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Симферополь, 4–5 май. 2017. – С. 511–517.

<sup>48</sup> Агафонова О.И., Белозерова М.С., Бех Е.Ф. Дисфемизмы и эвфемизмы в медийном дискурсе на примере публикаций о коронавирусе. // Казанская наука № 5 2020. – С. 52–54.

<sup>49</sup> Стасюк А.С. Прагматические характеристики дисфемизмов в парламентском дискурсе ФРГ и Швеции. // Риторика. Лингвистика. Смоленский государственный университет – Смоленск: № 11, 2015 г. – С. 300–306.

<sup>50</sup> Ищенко И. Г. Современные тенденции использования эвфемизмов и дисфемизмов в британской прессе // Известия ВГПУ. 2018. №3 (126). С. 116–119.

<sup>51</sup> Гильязова И.Р. Прагматика эвфемизмов и дисфемизмов в языке англоязычной и татарской прессы. // Вестник КГТУ им. А.Н. Туполева. 234. – 2013. № 2, вып. 2. – С. 89–97.

<sup>52</sup> Обвинцева О.В. Дисфемизмы как реализация стратегии дискредитации в русскоязычных средствах массовой информации // Политическая лингвистика. 3 (69)2018. ФГБОУ ВО “Уральский государственный педагогический университет”. – С. 63–68.

<sup>53</sup> Чепорухина М.Г. Эвфемизмы и дисфемизмы в новостной интернет-статье и комментариях к ней / М.Г.Чепорухина // Политическая лингвистика. – 2021. – № 1 (85). – С. 95–102.

<sup>54</sup> Орлова Е.А. Эвфемизмы и дисфемизмы в политических текстах британских СМИ / Е.А. Орлова // Лексикография и коммуникация, 2018: сб. материалов IV междунар. науч. конф. – Белгород: 26–27 апр. 2018 г. / М-во образования и науки РФ, НИУ БелГУ; отв. ред. А.П.Седых. – Белгород: 2018. – С. 133–136.

<sup>55</sup> Касатова И.А. Эволюция политических эвфемизмов и дисфемизмов в английском языке (на примере лексемы “Коммунист”) // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. 2014. №20 (706). – С. 102–109.

<sup>56</sup> Пастухова О.Д. Основные функции дисфемизмов и причина их употребления в политическом дискурсе // Вестник ЧелГУ. 2014. №6 (335). – С. 69–72.

<sup>57</sup> Обвинцева О.В. Дисфемизмы как средства реализации стратегии дискредитации в англоязычных средствах массовой коммуникации. // Политическая лингвистика. 3 (69)2018. ФГБОУ ВО “Уральский государственный педагогический университет”. – С. 63–68.

<sup>58</sup> Бех Е.Ф. Особенности функционирования дисфемизмов на основе их отношения с эвфемизмами в англоязычной литературе // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. 2017. №2

мумкин. Biroq tahlillar tipologik darajada emas, lingvistik sathda bo'lib, bunday ishlar sirasiga yana E.R.Sadikova<sup>59</sup>ning ham ishini misol qilib keltirish mumkin. Jahon tilshunosligida “disfemizm”ni boshqa nomlar bilan atab tahlilga tortilgan ishlar ko'zga tashlanadi, jumladan, A.V.Karasiq<sup>60</sup> “yumor”, A.N.Mutanova va T.Baymaxan<sup>61</sup> “sarkazm” va “ironiya”, M.S.Chij hamda I.I.Danilova<sup>62</sup>lar “kalambur”, S.A.Gazimalikova bilan T.I.Ragimxanova<sup>63</sup> “sleng” sifatida talqin etib, ularni salbiy vaziyatni uyg'otuvchi nutq birliklari qatorida o'rganadilar. Shuningdek, I.V.Gluxova<sup>64</sup>, L.M.Garayeva<sup>65</sup>, I. V.Reshetarova<sup>66</sup>, L.L.Fedorova<sup>67</sup>lar disfemik xususiyatga ega birliklarni nutqiy agressiya birliklari sifatida ilmiy xulosa chiqaradilar. Tipologik tahlillar sifatida M.Sh.Saturyan<sup>68</sup>, I.R.Gilyazova<sup>69</sup>, M.S.Pestova<sup>70</sup>larning ishlarini ko'rsatish mumkin. Bunday salbiy xususiyatli birliklarning tarjimai bilan bog'liq ishlar esa M.I.Balandina<sup>71</sup>, A.N.Mutanova va T.Baymaxan<sup>72</sup>larning tahlillarida o'z aksini topadi. O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida qilingan ishlar sifatida esa faqat N.Jo'rayeva<sup>73</sup>ning ilmiy xulosasini misol qilib olish mumkin.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar o'rganilib, tahlilga tortildi. Bu borada M.M.Xakimova tojik va ingliz tillari evfemizmlari<sup>74</sup>, Chjan Chan rus va xitoy tillarining evfemizmlari<sup>75</sup> muhim o'rin tutadi. Biroq badiiy adabiyotlarda aks etgan

(12). – С. 3–8.

<sup>59</sup> Садыхова Э.Р. Эвфемизмы и дисфемизмы в творчестве А.Эппеля. // МНСК-2020. Материалы 58-й Международной научной конференции. Новосибирск, 2020. – С. 57–58.

<sup>60</sup> Карасик А.В. Лингвокультурные характеристики английского юмора: дис. канд. фил. наук. – Волгоград: ФГБОУ ВО, 2001. – 193 с.

<sup>61</sup> Мутанова А.Н., Баймахан Т. Особенности перевода сарказма и иронии с английского на русский и казахский языки // Вестник магистратуры. 2016. №5-1 (56). – С. 45–47.

<sup>62</sup> Чиж М.С., Данилова И.И. Особенности перевода каламбура // Успехи современного естествознания. – 2012. – № 5. – С. 168.

<sup>63</sup> Газималикова С.А., Рагимханова Т.И. Особенности перевода молодежного сленга // Научные междисциплинарные исследования. 2021. №5. – С. 183–189.

<sup>64</sup> Глухова И.В. Лексико-семантические способы выражения речевой агрессии (на материале англоязычных печатных СМИ) // Вестник ЧелГУ. 2017. №12 (408). – С. 62–70.

<sup>65</sup> Гараева Л.М. Языковые средства вербальной агрессии профессиональных субкультур (на материале русского и английского языков). Автореф. дисс. канд. фил. наук. 10.02.20. – Казань, 2015. – С. 25.

<sup>66</sup> Решетарова И.В. Дисфемизм как средство проявления языковой агрессии. // Восточнославянская филология. Языкознание. Вып. 4(30), 2017. – С. 98–103.

<sup>67</sup> Федорова Л.Л. Прямое выражение агрессии в речевом общении / Л.Л. Федорова // Агрессия в языке и речи. – М.: 2004. – С. 219–232.

<sup>68</sup> Цатурян М.Ш. Лингвопрогнатика эвфемизации и дисфемизации англоязычного и русскоязычного политического дискурса. Автореф. дисс... канд. фил. наук, 10.02.19. – Майкоп, 2020. – С. 24.

<sup>69</sup> Гильязова И.Р. Прагматика эвфемизмов и дисфемизмов в языке англоязычной и татарской прессы. // Вестник КГТУ им. А.Н.Туполева. 2013. № 2, вып. 2. – С. 89–97.

<sup>70</sup> Пестова М. С. Эмотивность и оценочность как основные компоненты коннотации дисфемистических фразеологических единиц, построенных на гиперболе, в английском и русском языках // Лингвокультурология. 2010. №4. – С. 128–137.

<sup>71</sup> Бalandina М.И. Проблема перевода арго и дисфемизмов в двуязычной ситуации. Автореф. дисс... канд. фил. наук. 10.02.20. – Москва, 2000. – С. 28.

<sup>72</sup> Мутанова А.Н., Баймахан Т. Особенности перевода сарказма и иронии с английского на русский и казахский языки // Вестник магистратуры. 2016. №5-1 (56). – С. 45–47.

<sup>73</sup> Жўраева Н.Ш. Француз ва ўзбек тилларида эвфемик ва дисфемик бирликларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. // Файбулла Саломов ва ўзбек таржима мактаби. Илмий маколалар тўплами. 13 декабрь 2022 йил – Тошкент: ЎЗМУ, 2022. – Б. 196–199.

<sup>74</sup> Хакимова М.М. Лексико-семантический анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. Диссертация на соискание учёной степени кандидата филологических наук. – Худжанд, 2018. – 26 с.

<sup>75</sup> Чжан Чань. Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологический и лингвопрагматический

evfemizm va disfemizmlarni o'g'irish masalasiga oydinlik kiritilmagan. O'zbek va rus tillaridagi evfemik va disfemik birliklar badiiy matn kesimida tarjimai o'rganilmagan, tarjima qoliplari, ifoda mezonlari ishlab chiqilmagan, pragmatik tahlillar, lingvokulturologik tasniflar amalga oshirilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek va rus tillaridagi evfemik va disfemik hodisalarning chog'ishtirma aspektidagi tavsifini berish, ularning badiiy tarjimai usul va modellarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek tili evfemik va disfemik vositalarining rus tilida ifoda etilishini asoslash; rus tilidagi evfemik va disfemik vositalarning o'zbekcha matnda aks etishini dalillash;

o'zbek va rus tillaridagi mental xususiyatlarning lingvokulturologik, etnik va pragmatik shakllarini o'zga tilda aks ettirish masalalariga baho berish;

o'zbek va rus tarjimashunosligida badiiy tarjima aspektlarining ko'chim bilan bog'liq tomonlarini ochib berish;

evfemik va disfemik ko'chimlarning badiiy tarjimadagi imkoniyatlarini va chegaralarini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti**ni "O'tkan kunlar" asari va uning rus tilidagi tarjimai hamda "Anna Karenina" asari va uning o'zbek tilidagi tarjimasidagi evfemik va disfemik birliklar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** evfemik va disfemik birliklarning tarjimasidagi semantik, struktur, lingvokulturologik, leksikografik jihatlarini, mazkur birliklarni tarjima qilishda tarjima usullarining, transformatsion modellarning rolini ochib berish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil qilish, tasniflash, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

evfemik birliklarning tarjimasida kalkalash, muqobil tanlash (yaqinlashtirilgan tarjima), tavsifiy tarjima (transliteratsiya), transkripsiya qilish usullari dalillangan va disfemik birliklarning dunyo chog'ishtirma tilshunosligida nutqqa salbiy bo'yoq beruvchi boshqa nomlar ostida tipologik isbotlanishi va tarjimashunoslikda ko'proq tushirib qoldirish, kompensatsiya, kalkalash usullaridan foydalanish faol ekanligi aniqlangan;

turli tizimdagi tillarda iks-femalarning qiyosini belgilovchi morfologik, sintaktik, geneologik, lingvokulturologik omillar va tarjimasini belgilovchi grammatik, uslub tanlash, pragmatik, sohada qo'llanadigan iks-femalarni to'g'ri anglash omillari asoslanganib, ularning qiyosida leksik-semantik muammolar ko'chimlarda, tillarning yaqin va uzoqligi belgisiga ko'ra tipologiyasida, qo'llanilish

sohasida, til vakillarida iks-femik birliklarning idrok etilishidagi farqlarda aks etishi misollar bilan isbotlangan;

o'zbekcha asarlarning ruscha tarjimai hamda ruscha asarlarning o'zbekcha tarjimai qiyosiy tekshirilib, iks-femik vaziyat uchun moyil tarjima usullari aniqlangan, o'zbek va rus tillaridagi evfemik va disfemik birliklar badiiy tarjimasida tarjimonlarning o'ziga xos yondashuvi, iks-femik birliklarga adekvat muqobil tanlash masalalari ochib berilgan va evfemik va disfemik birliklarning tarjimada analog tanlash, leksik qo'shilmalar qo'shish, kalkalash, transkripsiya, perifraza, konkretlashtirish va umumlashtirish, modulyatsiya usullari, ularning tarjimadagi samaradorlik imkoniyati dalillangan;

o'zbek va rus tillaridagi evfemik/disfemik birliklar tarjimasini modellashtirish masalasiga oid tahliliy materiallardan mavjud transformatsion-semantik modelning yangi talqini – transformatsion-semiotik modeli yaratilgan;

iks-femik birliklar uchun qulay "vaziyatli model"ning nomi isloh etilib, situatsion-denotativ modeli ishlab chiqilgan, misollar orqali uning isloh etilgan nomi asoslanib, maqsadga yo'naltirilgan birliklarning pragmatik tabiati uchun xoslangan iks-femik birliklar tarjimasining funksional-pragmatik (dinamik) modeli qayta nomlangan, o'zgaruvchan xususiyatga ega evfemik va disfemik ko'chimlarning mazkur model orqali tarjimai asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turli tizimdagi tillarda iks-femalarning belgisiga ko'ra tipologiyasi va tarjimasini belgilovchi omillar, leksik-semantik talqini muammolari hamda tarjimai muammolari ilmiy asoslangan;

rus va boshqa tillar tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm hamda disfemizmlar talqini, shuningdek, o'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar tadqiqotlar obyektini sifatidagi o'rni borasida ilmiy dalillangan;

o'zbek va rus tillaridagi evfemizm va disfemizmlarning o'zaro tarjimasida analog tanlash usuli, leksik qo'shilmalar, kalkalash usuli, transkripsiya usullari, konkretlashtirish, modulyatsiya kabi tushunchalar ilmiy tahlil qilingan, misollar bilan asoslangan, bu usullarning samaradorlik imkoniyati diagrammalar yordamida isbotlangan;

o'zbek va rus tillaridagi evfemizm va disfemizmlar o'zaro tarjimasini modellashtirishda transformatsion-semiotik modeli, situativ-denotativ modellari, funksional-pragmatik (dinamik) modeli asos qilib olingan, misollar bilan ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi.** Tadqiq qilingan materiallarning o'zbek tili va rus tili xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xulosalar tayyorlashga yordam berganligi, ularning asosga ega ekanligi, metodologik tomondan mukammalligi, o'zbek va rus tillari iks-femik troplarining tarjimai modellari borligi amalda isbotlanganligi, tipologik yondashuvda manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek va rus tillaridagi iks-femik birliklarning tarjimai usullari va modellari boyitilishi va tizimlashtirilishi bilan belgilanishi, o'zbek va rus tillari iks-

femik birliklarining qiyosiy tahlillari natijasidagi xulosalar ilmiy ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek va rus tilidagi nutqiy vositalarni tarjima qilish uchun, "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fani uchun, qolaversa tarjimashunoslik sohasini o'qitish jarayonida dastur, rejalar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va rus tilidagi iks-femik birliklarning tarjimasini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'zbek va rus tillari badiiy tarjimasining o'rganilishi, tarjimaning transformatsion usul va modellari, o'zbek badiiy adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qilishiga, badiiy adabiyotlarda nutq birliklarining lingvokulturologik xususiyatlariga, ularning tarjima jarayonida muayyan birlikka aylanishiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258-sonli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 8-iyuldagi 01/110-1350-sonli ma'lumotnomasi). Natijada nutq birliklari tarjimasini bilan bog'liq xususiyatlar, ularning umumiy va xususiy jihatlari o'zgarib, yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan loyiha materiallari boyitilgan;

o'zbek tilining rus tili bilan qiyosiy o'rganilishi natijasida turkiy tillarning nutq birliklari tipologik xususiyatlariga doir, ularning rus tili nutq birliklari bilan farqi, lingvokulturologik badiiy tarjimasini natijasida bu birliklarning leksik birlikka aylanishiga oid, turkiy tillar badiiy asarlarida qo'llangan evfemik va disfemik birliklar hind-yevropa tillariga o'girilganda lingvomadaniy muhit va mental imkoniyatlar yetishmasligiga, bu vaziyatda aniqlik kiritish zarurligiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 08-iyuldagi 01/10-1349-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar, tezislar hamda monografiyalar o'zbek va rus tillaridagi evfemik va disfemik birliklar xususiyatlari va ularning tarjimasiga oid yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qilgan;

o'zbek va rus tillaridagi leksik va turg'un birliklarning pragmalogik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik va psixolingvistik tadqiqiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012–2016-yillarda bajarilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" ("Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке") hamda FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 19-martdagi 93/01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ularning umumiy va xususiy jihatlari o'zgarib,

yangi ilmiy manba va ma'lumotlar bilan boyitilgan materiallar, turkiy til matnlaridagi nutqiy birliklarning yevropa tilidagi nutqiy birliklari orasidagi farqlar ilmiy natijasiga oid va tarjima modellarining ahamiyatiga doir ma'lumotlar bilan aniqlashtirilib, to'ldirilgan;

tarjima modellarining ahamiyatiga oid ma'lumotlar, o'zbek tilining emotiv birliklarga, xususan iboralarga, qochirimlarga, kinoyalarga, maqollarga boyligi, o'zbek tilining nutq birliklari rus tili nutq birliklari bilan lingvokulturologik farqlari, ularning o'zaro badiiy tarjimasini natijasida leksik birlikka aylanganlarining lug'atlarda ta'minlanishi va tarjima imkoniyatini oshirishi borasidagi nuqtayi nazarlar, o'zbek milliy mental xarakterining yorqinligi tilda aks etishi haqidagi ilmiy xulosalar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Toshkent" teleradiokanali tonggi dasturini tayyorlashda foydalanilgan ("Toshkent" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 20-maydagi 01-15-48-son ma'lumotnomasi). Natijada tarjima usullarining ahamiyati, ayniqsa, kinofilm va badiiy adabiyotlarda qo'llanilgan o'zbek tilidagi modallik, emotsionallikni yetkazib berishda rus tilining til vositalari yetishmasligi va rus tilidan tarjima qilingan filmlarning o'zbek tilidagi variantida yanada boy koloritga erishilganligiga doir yangi ma'lumotlar bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 37 ta ish, shundan 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta ilmiy maqola (shu jumladan, 10 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Hajmi 240 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Evfemizm va disfemizm tarjimashunoslik hamda chog'ishtirma tilshunoslikning obyekti sifatida**" deb nomlanadi. Unda rus va boshqa tillar tarjimashunosligi hamda chog'ishtirma tilshunosligida evfemizmlar hamda o'zbek tarjimashunosligi hamda chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini alohida bo'limlarda yoritib berilgan. Evfemizmlarning tarjimashunoslikdagi o'rni qiyosiy tilshunoslikdagiga nisbatan ustun bo'lib, bu dunyoviylashuvda muammoliroq

bo'lgan masalani o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Rus va boshqa tillar tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini o'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligi talqini diapazonidan kengroq. Rus va boshqa tillar tarjimashunosligida evfemizmlarning tarjimasi bilan bog'liq ishlarning aksariyati ijtimoiy sohalar, turli mavzular va tarjima usullar doirasida bo'lib, bunda *o'lim*, *kasallik* bilan bog'liq mavzular, siyosiy diskurs, iqtisodiy va tibbiy sohaga tegishli evfemik birliklar tarjimasi va uning usullari tahlil qilingan. Evfemik birliklarni tarjima qilish usullaridan eng faollari deb *kalkalash*, *analog tanlash* ko'rsatiladi. Rus va boshqa tillar chog'ishtirma tilshunosligida evfemizmlarga oid statistik ma'lumotlar; tillardagi ushbu birlikning qo'llanilish darajasi, mavzuiy guruhini aniqlash, qiyoslanayotgan/chog'ishtirilayotgan tillar bilan lingvokulturologik yondashuv bilan amalga oshirilgan jiddiy ishlar mavjud. Monografik ishlarida tillarning struktur-semantik jihatlari statistik tahlilga tortilgan. Mazkur ishlardan tillarning iks-femik voqelikka bo'lgan moyillik darajasi ko'zga tashlanadi.

Rus va boshqa tillar chog'ishtirma tilshunosligida disfemizmlar talqini kam uchraydi. Asosan, ingliz va nemis matnlarida, jumladan, eski badiiy asarlarida, keyinchalik publitsistik jarayonlarda disfemik ifodalar uchraydi. Bu tillar rus tili bilan chog'ishtirilib, tillarining psixologik xarakteristikasi ilmiy ishlarda talqin etiladi. Aksariyat ishlar muayyan tilning ichki resurslarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, tipologik yondashuvlarda disfemizatsiyaga yondosh hodisalar tilga olingan. Yoshlarga xos sleng, kalambur, yumor, verbal agressiya, argo shular jumlasidan. Aynan disfemik birliklarning tillararo tipologik muammolari ochiq qolgan. Rus va boshqa tillar tarjimashunosligida disfemizmlarning aksariyati rus tilshunosligi bilan aloqador. Biroq tarjima usullari borasidagi ishlar sanoqli.

O'zbek chog'ishtirma tilshunosligida iks-femizmlar yuzasidan, asosan, ingliz, rus, fransuz, xitoy va nemis tillari bilan muayyan darajada tipologik talqinlar amalga oshirilgan. O'zbek tarjimashunosligida iks-femik birliklar tarjimasi bilan bog'liq ishlar rus va boshqa tillardagi ishlardan orqada ekanligi kuzatiladi.

O'zbek tarjimashunosligida iks-femik birliklarning o'zbek-nemis tillararo tadqiqoti mavjud. Shuningdek, kinodiskursdagi iks-femalar tarjimasi tadqiq etilgan. Bu masalaning turli aspektdagi tadqiqi dolzablik kasb etadi. Zero, iks-femik birliklarning o'zbek va rus tillariga tarjimasi usullari tahlilga tortilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Turli tizimdagi tillarda iks-femalarning chog'ishtirilishi va tarjimasi muammolari**"ga bag'ishlanib, unda turli tizimdagi tillarning iks-femalar chog'ishtirilishi va tarjimasini belgilovchi omillar; turli tizimdagi tillar iks-femalarining chog'ishtirilishida leksik-semantik muammolar; turli tizimdagi tillarning iks-femalarini tarjima qilish muammolari xususida so'z boradi. Turli tizimdagi tillarning iks-femalarini chog'ishtirish va tarjima qilinishida muayyan omillarga tayanadi. Jumladan, turli tizimdagi tillarning chog'ishtirilishida morfologik, sintaktik, geneologik, lingvokulturologik omillar muhim rol o'ynaydi; tarjimasini belgilovchi omillarga esa grammatik, uslub tanlash, pragmatik, sohada qo'llangan iks-femik birliklarni

to'g'ri anglash kiradi. Bu omillar: a) tillarni bir biriga yaqinlashtirib qo'yishga; b) evfemik birliklarning qayta nomlanishiga; d) disfemik birliklarning ortofemik tusga kirishiga; e) ortofemik birliklar evfemik yoki disfemik kayfiyat berishiga olib kelishi mumkin.

Turli tizimdagi tillar iks-femalarining chog'ishtirilishida leksik semantik muammolar sinonimik, omonimik, antonimik, polisemantik jarayonda o'z aksini topadi. Bunda evfemizm va disfemizmning qo'llanilish darajasi farqlanadi. Disfemizmlar rus va Yevropa tillarida boshqa – sleng, jargon, argo, vulgarizm kabi yondosh hodisalar bilan hamohang tadqiq etiladi. Disfemizmning leksik, grammatik, morfologik va sintaktik masalalari, mavzuiy guruhlari yondosh hodisalarga nisbatan ustun. Evfemik va disfemik birliklarning metoforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik asosida ma'no ko'chimlari turli tizimdagi tillarda o'xshash. Disfemizmning lingvopragmatik, lingvokulturologik xususiyatlari chog'ishtirilayotgan tillarda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Evfemizmlarning leksik-semantik muammolari sinonimik, omonimik, antonimik, monosemantik va polisemantik jarayonda ham o'z aksini topadi. Ko'p tillarda *o'lim* tushunchasi bilan bog'liq sinonim evfemizmlar o'z denotati bilan o'xshash bo'ladi va ularni tarjima tilidagi ekvivalent evfemik leksik birlik bilan tarjima qilish oson. Omonimik holat esa polisemantik holat bilan o'xshash bo'ladi. Ularning farqi tarjima jarayonida aniqlanadi. Antonimik evfemizatsiya hamma tillarda, xususan, o'zbek va rus tillarida ham o'xshash holatda yuz beradi, asosan ijobiy sifatni qo'shtirnoq ichida evfemalashtirib berishda ko'zga tashlanadi.

Disfemizmlar vulgarizm, sleng, jargon, invektiva, varvarizmlar bilan hamohang vujudga kelgani bilan ularning chegarasi bor. Disfemizmlarning sinonimik qatori asosan badiiy adabiyotda ko'zga tashlanadi. Shuningdek, o'lim, kasallik, urush va turli ofatlar natijasida paydo bo'lgan nutqiy birliklar disfemizmlarning sinonimik qatoridan o'rin oladi. Disfemik omonimiya o'ta xususiy nutqiy jarayon bo'lib, har bir tilning ichki muhiti uchun yaratilgan birlikdir. Antonimik disfemizmlar o'zbek va rus tillarida morfologik ko'rsatkichlari bilan hosil bo'lishi mumkin. Disfemizm lingvopragmatik va lingvokulturologik jihatdan evfemizmga nisbatan ancha xususiy va originaldir. Bunga so'kish, haqorat, qarg'ish, masxara, kinoya kabi mavzuiy masalalar, gender xoslanish, sotsiomadaniy stereotiplar kiradi. Shunga ko'ra rus va o'zbek tillarida disfemizmlarning leksik-semantik jihatdan leksik, morfologik, grammatik, sintaktik sathlarida farqlar kuzatiladi.

Turli tizimdagi iks-femizmlarning tarjimasi ko'proq badiiy tarjima doirasida o'rganiladi. Badiiy tarjimada iks-femalar o'zbek va rus tillarida ham iks-femalashtirilgan. Iks-femalarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazishda yuzaga keladigan muammolar, birinchi navbatda, manba tilining ma'nosini to'liq aks ettiruvchi optimal tarjima usulini tanlash bilan bog'liq. Evfemizm tarjimasi o'zbek tilshunosligida yirik ishlar sanoqli bo'lib, uning tarjima jarayonidagi mezonlari, qoliplari, talablari yetarlicha ishlanganicha yo'q. Biroq ushbu ko'chimning har bir tilda maxsus o'rganilishi natijasida katta yutuqlarga erishilgan. Disfemizm tarjimasi o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy tadqiq

uchun katta ahamiyatga ega. Xususan, nutqiy madaniyat nuqtayi nazaridan mazkur hodisaning tilda ifoda etilishi me'yorlashtirilmaganligi bois, uni o'rganishda tadqiqot obyekti bo'la olmaganligi bilan xarakterlidir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbek va rus tillaridagi evfemizm/disfemizmlar badiiy tarjimasida yondashuv hamda usullar**" deb nomlanadi. Bunda dastlab tarjimonlarning evfemik va disfemik birliklarni badiiy tarjimasida obyektiv va adekvat yondashuvi xususida so'z boradi. Iks-femizmlarni tarjima qilishda tarjimonlarning roli katta, ikki tilning o'rtasidagi uchinchi shaxs sifatida xolis va adekvat yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Iks-femik birliklarni to'g'ri anglash, tilning morfologik, sintaktik, lingvokulturologik omillar tarjimon uchun notanish bo'lmasligi kerak. Shu ma'noda, o'zbek tilidagi badiiy asar tajimoni ham, rus tilidagi badiiy asar tarjimoni ham o'zbek bo'lganda nutqdagi ekspresivlik o'zbek tilida saqlangani va rus tilida saqlanmagani kuzatildi. Masalan: *шпилька* so'zining lug'aviy (*заколка, булавка, каблук, спица, игла, вилка, штифт, шелчок, подковырка, невидимка, ...*) ma'nolaridan tashqari rus tilida bir necha ko'chimplari (masalan: *сарказм, ирония, острота, издевательство, оскорбление, унижение, сатира, карикатура, подкол*)<sup>76</sup> kabi ma'nolari) bo'lib, tarjimon hammasini ham o'sha ma'no bilan o'gira olmagan:

1. *Он прочел и другую статью, финансовую, в которой упоминалось о Бентаме и Милле и подпускались тонкие шпильки министерству.*

*Stepan Arkadich moliya masalalaridan bahs etuvchi yana boshqa maqolalarni ham o'qidi; bunda Bentam va Mille tilga olingan, ministrlikka ta'na toshi otilgan edi.*

2. *Со свойственной ему быстротою соображения он понимал значение всякой шпильки: от кого и на кого и по какому случаю она была направлена, и это, как всегда, доставляло ему некоторое удовольствие.* (Анна Каренина – 21)

*U o'zining o'tkir farosati orqasida har qanday imo-ishoraning ma'nosini: kim tosh otyapti, kimning sha'niga tosh otilyapti, nima munosabat bilan shunday qilinyapti – buni darhol payqab olar va bu narsa uni har vaqt birmuncha tamnun qilardi.*

Bu yerda *шпилька* so'zining evfemik ma'nosi, gapda qo'llangan *tosh otish* leksik qo'shilmasi bilan muayyan darajada yetkazib berilgan. U "imo-ishora" o'girmasining ma'nosini to'ldirish uchun xizmat qilgan. Bu birlik ham "izoh", "malomat", "piching", "qistirma" kabi birliklariga almashtirilganda yanada yaqinroq evfemiyani hosil qilish mumkin: *U o'ziga xos o'tkir zehni bilan hap bir qistirmaning mohiyatini: kimdan va kimga, nima sababdan yo'llanganini tushunardi, bu esa, har doimgidek, unga qandaydir zavq berardi.* Bundan tashqari o'zbek tilida "chaquv" atamasi mavjud bo'lib, *chaqimchilik* so'zining ma'nosidan hosil bo'lgan harakat nomi sifatida OAV da uchraydi:

*"Chaquimchilik – birovlarining ustidan hokimiyat organlariga chaquv uyushtirishni kasb qilib olgan ayrim shaxslar o'z ishiga sidqidildan*

*yondashishmoqda va bu xatti-harakatidan aslo uyalishayotgani yo'q."*<sup>77</sup>

Mazkur birlik "chaquv" (nima qilmoq?) so'zining o'zagidan olingan ko'chma so'z sifatida disfemik tabiatga ega. Bunda Erkin Vohidovning mazkur so'zga bergan ta'rifi dalil bo'la oladi: "Ari, ilon-u chayonning nashtar urishini ham besabab chaqish demaganlar. Demak, chaqimchi bilan gazandaning hunari bir"<sup>78</sup>. U yuqoridagi pragmatik vaziyatda *шпилька* so'zi uchun muqobil okkazonal birlik bo'la olish qobiliyatiga ega:

*U o'ziga xos o'tkir zehni bilan hap bir chaquvning mohiyatini: kimdan va kimga, nima sababdan yo'llanganini tushunardi, bu esa, har doimgidek, unga qandaydir zavq berardi.*

Bunda evfemik vaziyat biroz disfemik vaziyatga o'zgarishi kuzatiladi. Zero, "birovning gapini birovga aytsa *chaqimchilik*, insonning gapini yuqoriga, podsholikka yoki hukumatga yetkazsa *chaquv* bo'ladi. *Chaquv* oldida *chaqmachaqqarlik* holva bo'lib qoladi. Chaqimchilikdan bir insonga ozor yetsa, chaquvdan yuz minglarning yostig'i qurigan"<sup>79</sup>, degan edi E.Vohidov. Biroq kontekstga iks-femik xarakter yuklash maqsadi ustunlik qilib, obyektiv leksik birliklardan foydalangan holda umumiy matn emotivligini, okkazonalligini hosil qilish maqsadga muvofiq.

Bobning ikkinchi bo'limi o'zbek va rus tillaridagi evfemizm/disfemizmlarning tarjima usullariga bag'ishlanadi. Iks-femizmlarni tarjima qilishda tarjimaning turli usullaridan foydalanish mumkin. Biroq, transkripsiya, konkretlashtirish usullari evfemizmni tarjima tilida yetkazishda past ko'rsatkichga ega. Analog topish usuli esa eng samarali usuldur. Shuningdek, kalkalash, leksik qo'shilmalar qo'shish orqali emfatik birlikni tarjima tilida yetkazish imkoni mavjud. Tarjima jarayonida bir nechta usullardan foydalanish ham mumkin.

Analog tanlash usuli: *Shundan so'ng ikkinchi dushmani tuy nukdan chiqmayoq ishini bitirdim. Bizning foji'amizning asl omili bo'lg'an Homid esa go'yo manim qo'limda mushuk kabi o'yin bo'lg'an, uni kulib-kulib, o'ynab turib tilimlagan edim...// После этого я прикончил второго врага тут же, не вылезая из пролома. А главный виновник всех наших бед Хамид стал игрушкой в моих руках, я тешился им, как мышонком, и расправился с ним играючи...*

Leksik qo'shilmalar: "Мне видеть мерзко, мерзко, и вы добились, вскружили голову девочонке." gapida *мерзко* so'zi takror qo'llanilib, voqelikka nisbatan nafrat hissini bo'rttirish uchun stilistik priyom sifatida disfemizmdan foydalaniladi. Tarjimada bu holat leksik qo'shilma bilan, xususan, fe'lli so'z birikmasi bilan o'z aksini topadi: *Bunday narsalardan jirkanaman, ko'nglim ayniydi, siz bo'lsangiz murodingizga yetdingiz: qiz bechoraning boshini aylantirdingiz.*

Kalkalash usuli: *Qars ikki qo'ldan chiqadir, – dedi Zaynab, – men yaxshi bo'lg'an bilan opam yomon bo'lsa, hozirgi bergan va'damdan nima foyda*

<sup>77</sup> <https://kun.uz/28497313?q=%2Fuz%2F28497313>

<sup>78</sup> Вохидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O'zbekiston, 2014. – Б. 16.

<sup>79</sup> Ko'rsatilgan manba.

<sup>76</sup> <https://kartaslov.ru>

bo'lsin. // **В ладоши хлопают двумя руками**, – сказала Зайнаб, – если я буду хорошей, а старшая сестра – плохой, как же тогда я сдержу обещание.

**Transkripsiya usuli:** *Наш милый самовар будет в восторге (Самоваром он называл знаменитую графиню Лидию Ивановну за то, что она всегда и обо всем вспоминалась и горячилась).* // *Dilkash samovarimizning boshi osmonga yetadi-da (U mashhur grafinya Lidiya Ivanovnani hamma vaqt, hamma narsaning tashvishini yeb, hovliqib yurgani uchun samovar deb atardi).*

**Perifraza va parafraza:** *Все умное так надоело...//... aqlli gaplar me'daga tegib ketdi...; Ol bolam, ol! Men tomoqdan uyulaturg'on kishini yomon ko'raman. // Ну возьми же, кушай, дитя мое! Я не люблю людей, которые стыдятся есть.; Как же, знаю. Я сним имел дела “положительно и окончательно”.* // *Bo'lmasa-chi, albatta taniyman. Men ham u bilan “bor baraka” qilishganman.*

**Konkretlashtirish va umumlashtirish:** *Xafa bo'lish emas, so'yindim, – dedi Kumush va dasturxondan cho'qindi. // Я нисколько не обиделась, напротив, даже обрадовалась, – сказала Кумуш и взяла кусочек с одного из блюд.; Есть, брат! Вот видишь ли, ты знаешь тип женщин оссиановских<sup>80</sup>... женщин, которых видишь во сне... Topdim, og'ayni! o'zingdan o'tar gap yo'q, hurliqo... tushingga kirib turadigan xotinlar bo'ladi...*

**Modulyatsiya:** *Ты ведь не признаёшь, что бы можно было любить калачи, когда есть отсыпной поек, – по-твоему, это преступление; а я не признаю жизни без любви, – сказал он, поняв по-своему вопрос Левина. // – Sen axir o'zingning halol noning turganda, bironing kulchasiga ko'z olaytirishni yoqtirmaysan, sen buni jinoyat deb bilasan; men esa hayotni muhabbatsiz tasavvur qilolmayman, – dedi u, Levinning savolini o'zicha tushunib.*

Bobning uchinchi bo'limi o'zbek va rus tillaridagi evfemizm/disfemizmlar badiiy tarjimasini usullarining samaradorlik imkoniyati xususida. Iks-femizmlarni tarjima qilishda tilning turli belgilariga ko'ra: analog tanlash usuli, leksik qo'shilmalar qo'shish usuli, konkretlashtirish usuli, umumlashtirish (generalizatsiya), transkripsiya, kalkalash, perifraza va modulyatsiya usullari samaradorligi aniqlandi. Tilning tipologik xususiyatlarini geneologik, morfologik, sintaktik, lingvokulturologik omillari namoyon etadi va asosan modulyatsiya, perifraza, leksik qo'shilmalar qo'shish usuli bunda faollik qiladi. Iks-femik birlilarning tarjimasini esa grammatik, uslub tanlash, pragmatik va sohada qo'llanilgan iks-femalarni to'g'ri anglash omillari belgilab beradi va bunda grammatik omilda modulyatsiya, leksik qo'shilma, analog tanlash; pragmatik omilda leksik qo'shilma, modulyatsiya, perifraza/parafraza, konkretlashtirish va umumlashtirish; sohada qo'llanilgan iks-femalarni to'g'ri anglash omilida leksik qo'shilma va analog tanlash usullaridan tashqari hammasi; uslub tanlash omilida esa tarjima usullarining hammasi ishtirok etadi. Iks-femizmlarning leksik-semantik jihatlarida tarjima usullarining samaradorligi,

<sup>80</sup> Jumladagi ...тип женщин оссиановских... birligi havolada ingliz shoiri Dj. Makferson tomonidan 1765-yilda chop etilgan “Песен Оссиана” romanidagi ayol obrazlariga ishora qilinadi. “Оссиановские женщины” birligi tarjima tilida “hurliqo” leksemasi bilan almashtiriladi. Natijada evfemik ekspressivlik umumlashadi.

asosan, sinonimik jarayonda kuzatiladi. Evfemizmlarning omonimik, polisemik, antonimik jarayonlarida ham konkretlashtirish, umumlashtirish hamda transkripsiyadan tashqari hamma tarjima usullari samaradorligi aniqlandi. Disfemik birliklarda esa sinonimik jarayonda hamma tarjima usullari faolligi, omonimik holatni tarjima qilishda modulyatsiya, umumlashtirish, analog tanlash usullari muammo ekanligi, antonimik jarayonda modulyatsiya va transkripsiya usuli besamar ekanligi, polisemantik jarayonda, asosan, konkretlashtirish, transkripsiya va kalka usuli ma'no ko'lamini kengaytirmasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi “**O'zbek va rus tillaridagi evfemizm/disfemizmlarning tarjimasini modellashtirish interpretatsiyasi**” deb nomlanadi. Tarjimada modellashtirish atamasi ostida asl matndagi mohiyatni boshqa tilda nusxasini yaratish uchun qolip yasash deb tushunish lozim. Tarjimashunoslikda bir nechta tarjima modellari mavjud. Lekin ular aynan iks-femik birliklar uchun emas. Iks-femik birliklarning tarjimasini uchun transformatsion-semiotik, situatsion-denotativ va funksional-pragmatik modellardan foydalanish ahamiyatga molik.

Tarjimashunoslikda an'anaviy transformatsion-semantik model mavjud bo'lib, iks-femik birliklar uchun u transformatsion-semiotik model deb atalishga loyiq. Chunki bunda bir qator transformatsiyalar amalga oshiriladi. Masalan: – *Iymanma, Kumush otin, bu kun-erta bizga kelinsan, uchunchi kundun boshlab sen mug'ombirning boshingda tegirmon yurgizishni o'zim yaxshi bilaman! – dedi. // – Ну смущайся, Кумуш-атын. Сегодня-завтра ты наша гостья, новая невестка. А дня через три я у тебя, хитрюги, на голове жернова буду вертеть.*

Bu modelning tahlil qilish bosqichida ma'nosida elementar belgilar (semalar)i bo'lgan alohida so'zlar ham soddalashtirilgan transformatsiyalarga uchraydi. Tushunchalarning bunday elementlari semantik ma'nosi yaqin so'zlar bilan qiyoslash va ularni farqlash jarayonida ajralib turadi. Bunday semantik qator a'zolarida tushunchaning umumiy elementlarini topish mumkin bo'lganidek, differensial, sinonimik qatoridagi boshqa a'zolaridan farqli ma'nolarini ham aniqlash mumkin. Masalan: *kelin, kelinchak, yangi kelin, oiladagi yangi odam, hozircha mehmon, mehmon* so'zlari qatorida umumiy (yadroviy) ma'no komponenti “bir xonadonga boshqa xonadondan yangi oila a'zosi bo'lib kelgan odam” bo'ladi.

Ular orasida *kelin* – *nevestka* hosila ma'nosi bu yadroviy tushunchadan tashqari yana ikkita qo'shimcha differensial “yangi odam”, “mehmon” va “yana bir oila a'zosi”, “hozircha mehmon, keyinchalik kelin, ya'ni qiz, bir oila a'zosining mahrami, bolalarning onasi, nabiralarning buvisi” belgilarini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda tarjima tilida o'z soyasida “yangi odam”, “mehmon” semalarini o'zida yashirayotgan hosila ma'no (*kelin*) ochiq, ya'ni neytral ifoda (*gostya, novaya nevestka*) bilan almashadi. Bunda tarjima me'yorlariga xos modeldan foydalanib muayyan natijaga erishilgan.

Iks-femik birliklar uchun mos ushbu model belgilar va belgilar tizimini o'rganishning uchta asosiy jihatini ochib beradi:

1) sintaktik jihat: u interpretatsiya qilinishiga aloqasi bo'lmagan belgi

tizimlarining ichki xususiyatlarini o'rganadi;

2) semantik jihati: u belgilarning belgilanayotgan voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rib chiqadi;

3) pragmatik jihati: u belgilarning "adresat" bilan aloqasini, ya'ni belgilarni ulardan foydalanuvchilar tomonidan interpretatsiya qilish muammolarini, ularning interpretator uchun foydaliligi va ahamiyatini o'rganadi.

Tarjimaning situatsion-denotativ modeli situatsiyaga asoslanadi. Har bir tilning situatsiyasidan kelib chiqib denotat tanlanadi va matndagi ekvivalent birliklardan holi matn yaratiladi. Manbalarda denotativ, denotativ (situativ), situativ-denotativ modellar qayd etiladi. Iks-femik birliklar uchun situatsiya ustivorlik qiladi. Shuning uchun, uni situatsion-denotativ model bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq. Masalan: "Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsaq yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirquchi – biz ko'r va aqlsiz otalarg'a xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim!"<sup>81</sup>.

Ma'lumki o'sha davrda ruslarga nisbatan "dushman" denotati avj olgan bo'lib, tarjimon manba tilidan rus tiliga tarjima qilingani uchun o'rus so'zining ekvivalentini qo'llamaydi: "Ежели мы сами будем уничтожать наших кровных братьев, недалек тот день, когда грязные сапоги врагов затопчат нашу землю. Туркестан покроется позором под гневом завоевателей, и тогда мы собственными руками наденем на шею следующего поколения ярмо порабощения. Нас, слепых, безумных отцов, добровольно отдающих свое будущее в руки неверных, Аллах безусловно проклянет за междоусобицу, которая и есть причина нашей беспомощности перед неверными, сын мой!"<sup>82</sup>.

Bu tarjima leksik-semantik belgilar bilan emas, matn ekvivalenti situatsion transformatsiyaga uchragan. Bunda denotat sifatida *враг, завоеватель* leksik birliklari matn uchun yadro vazifasini o'tamoqda. *Kofir* disfemik ko'chimi esa *неверный* evfemik tabiatli birlikka aylangan. Umuman, matnda disfemik birliklar ko'p uchraydi: *iflos oyog'i* → *грязные сапоги*, *bulg'atar* → *затопчат*, *ko'r va aqlsiz otalar* → *слепые, безумные отцы* kabi. Ularning ayrimlari alohida olinganda leksik ma'nosining semantik varianti emas. "Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'izxona qilishig'a hozirlang'an biz itlar yaratguchining qahrig'a albatta yo'liqarmiz"<sup>83</sup>. Bunday disfemik ko'chimli leksik birliklarning lug'aviy ma'nosi tarjima tilida o'zgarmaydi: *Нас обязательно постигнет кара Господня за то, что мы, собаки, позволили превратить в свинарник Туркестан, где покоится священный прах предков.* Mazkur tarjimada situatsion-denotativ modeldan foydalanilmagan. Tilning lug'at boyligidagi mavjud iks-femik *to'ng'izxona* → *свинарник*, *itlar* → *собаки* birliklardan foydalanadi. Bu esa transformatsion-semantik modelga xos.

Tarjimashunoslikda aynan funksional-pragmatik model alohida model sifatida o'rganilmagan. Funksional, kommunikativ funksional modellar ayrim ishlarda tadqiqot obyektiga bo'lgan. Funksional model "skopos" nomi ostida nemis tilshunosligida birinchi bor qayd etilgan. Unda til birliklarining maqsadli qo'llanilishi tarjimada ham o'z ifodasini topishi kerakligi haqidagi nazariya ilgari suriladi. Iks-femik birliklar esa, aynan, maqsadli birliklar sifatida qaraladi. Bunda pragmatik vaziyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: "Юсуфбек-хаджи, хорошо зная **взбалмошный** характер своей **недалёкой** жены, решил не рассказывать ей ничего о том, что произошло с Атабеком, не раскрывать его тайн, но счел необходимым предупредить Узбек-аим о приезде маргиланской невестки и ее родителей"<sup>84</sup>.

"Yusufbek hoji **chala-dumbul tabiatlik** xotini **fe'li xo'yini** yaxshi bilgani uchun o'tkan voqi'larni, ya'ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo'lsa ham, ammo marg'ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi"<sup>85</sup>.

Asliyatda "dumbullik" ko'chma ma'noda "hayot tajribasiga ega bo'lmagan", "g'o'rlik" mazmunida kelib, aslida, uning "chala"ligi esa "g'o'rlik" emas, balki "aqllilik"ka yarim barobar yetmagan ma'nosini berishi kerak, ya'ni "g'o'rlik"dan biroz yuqori – "aqllilik"ka yaqinroq. Lekin "chala" so'zining o'zi salbiy o'ttenkaga ega bo'lgani uchun nutq vaziyatida – xalq tushunchasida bu birikma salbiy birlik sifatida qabul qilinadi. Tarjima tilida shu hosila ma'no uzvlarining mavjudligini ko'ramiz. Konnotatsiya emotiv qiymatga ega bo'lib, bu birlik manba tilidagi mental borliqni pragmatik to'g'ri baholagan holda idrok etilish va aks ettirish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzviy bog'liq bo'lgan evfemizmning ta'sir etish funksiyasidan samarali foydalanilgan. Shunga ko'ra, iks-femik birliklarning tarjimasida funksional-pragmatik modeldan foydalanish samarali natijani beradi, deyish mumkin.

## XULOSA

1. Iks-femizmlarning tarjimashunoslik va chog'ishtirma tilshunoslikda o'rganilishi turli sathlarda amalga oshirilgan. Bunda tarjimashunoslik hamda chog'ishtirma tilshunoslik sohalari ayri-ayri maqsad va muammolarni o'zida aks ettirgani bois tadqiqotlar darajasi farqlanadi. Tarjimashunoslikda nutqiy birliklarning tarjima usullari, interpretatsion modellari talqin etilsa, chog'ishtirma tilshunoslikda ularning tillararo umumiy va xususiy belgilari tadqiqot obyektiga aylangan.

2. Chog'ishtirma tilshunoslikdagi ishlarning aksariyati monografik planda bo'lib, tarjimashunoslikda iks-femik birliklarning tarjimasini bilan bog'liq ishlar ko'pincha ilmiy maqolalarda, kichik tadqiqotlarda o'z aksini topadi. Bu iks-femik birliklarning o'zgaruvchan xususiyatga egaligi bilan belgilanadi. Chog'ishtirma tilshunoslikda esa mazkur nutqiy birliklarning lisoniy sathga ko'chganligi, ommalashganligi, badiiy tus olganligi qiyosiy tahlilga tortilgan.

<sup>81</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 2008. – B. 161.

<sup>82</sup> Кадыры А. Минувшие дни. – Ташкент: Шарк, 2009. – С. 324.

<sup>83</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 2008. – B. 161.

<sup>84</sup> Кадыры А. Минувшие дни (перевод Мухаммаднодыра Сафарова). – Ташкент: Шарк, 2009. – С. 259.

<sup>85</sup> Qodiriy A. O'tkan kunlar. Roman. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, 2008. – B. 164.

3. O'zbek chog'ishtirma tilshunosligida iks-femik birliklarning tadqiqot obykti sifatidagi roli rus, fransuz, nemis, xitoy, ingliz tillari bo'lgan tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Iks-femik birliklarning tarjima muammolari inglizxon badiiy kinodiskursida voqelangan evfemik, ortofemik va disfemik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishning muayyan tamoyillarini belgilash asosida hal etilgan xolos. Badiiy matnda ifodalangan mazkur nutqiy birliklar tarjimasi masalasi ochiq qolgan.

4. Iks-femik birliklarning chog'ishtirilishi va tarjimasi muayyan omillarga tayanadi. Bunda tilning turli belgilari asosida farqlangan xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Turli tizimdagi tillar iks-femik birliklarining chog'ishtirilishini morfologik, sintaktik, geneologik, lingvokulturologik omillar; tarjimasini esa grammatik, pragmatik, uslub tanlash va sohada qo'llangan iks-femalarni to'g'ri anglash omillari belgilaydi.

5. Iks-femalarning leksik-semantik muammolari shakl va ma'no munosabatiga ko'ra hamda ma'no ko'lamiga ko'ra voqelangan birliklarda o'z aksini topadi. Ularning chog'ishtirilishida ham, tarjimasida ham turli tizimdagi tillarning morfologik, sintaktik, geneologik, lingvokulturologik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, turli tizimdagi tillar iks-femalarning leksik-semantik masalalarida umumiylik va xususiylik darajasiga ko'ra *sinonimik* (o'lim, kasallik tushunchalari kabi), *antonimik* (qo'shtirnoq ichida berilish, bo'lishsizlik shaklidagi grammatik xususiyatlar kabi), *polisemantik* (metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi), *monosemantik* (haqorat, qarq'ish kabi) jarayonlarda uyg'unlik mavjud, omonimik jarayon esa farqlanishi kuzatiladi. Chunki lingvokulturologik va pragmatik vaziyatning har bir til ichki resursida turlicha lisoniylik omonimik jarayonining xususiyatini ko'rsatadi.

6. Evfemik va disfemik birliklarning ifoda plani mental-madaniy belgilariga ko'ra ham farqlanadi. Disfemizmlarning chog'ishtirilishida leksik-semantik muammolar lingvopragmatik, lingvokulturologik jarayonlarda ham ko'rinadi. Shu jihatdan evfemizmga nisbatan disfemizm o'ta xususiydir. Mavzuiy guruhlari turli tizimdagi tillarning har qaysisida o'ziga xos. Uning leksik, morfologik, grammatik, sintaktik xususiyatlari har bir tilda ayri-ayri namoyon bo'ladi. Evfemizm esa turli tizimdagi tillarda bir maqsad, o'xshash mavzuiy guruh va umumiy belgilari bilan uyg'unlashadi.

7. Iks-femalarni tarjima qilish masalasiga ilmiy yondashuvlar XXI asrda boshlangan. Uning lisoniy va nolisoniy shakllari badiiy adabiyotda, siyosiy diskursda, muayyan sohalarida o'z aksini topadi va dinamik xususiyatga ega. Ularga tarjima qilinishi qiyin bo'lgan birliklar masalasiga doir ilmiy bahslarda murojaat qilinadi. Rus va dunyo tilshunosligida iks-femizmlar tarjimasining murakkab jarayonligi, bunda tarjimonning layoqati muhimligi masalasiga oid ishlar o'zbek tilshunosligida bajarilgan ishlarga nisbatan ko'lam keng.

8. Evfemizm hodisasining leksikografik muammolari muayyan darajada hal etilgan bo'lib, disfemizmlarning bu boradagi muammosi xususiy belgilari sababli ochiq qolgan. Dunyo tilshunosligida disfemizm boshqa yondosh hodisalar, xususan, sleng, jargon, argo, vulgarizm nomi ostida tadqiq etiladi va disfemizm atamasi monografik ishlarning obyektida kam uchraydi.

9. Badiiy matndagi iks-femik birlik milliy-madaniy sotsiolekt sifatida pragmatik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, sotsiogrammatik, lingvokulturologik vazifalarni bajaradi. Bunda tarjimonning kodlangan milliy-madaniy belgilarni dekodlash va qayta kodlash jarayonlarida xolis va adekvat yondashuvi talab etiladi. Me'yoriy hamda me'yor bo'lmagan ifodalar va tushunchalar o'rtasidagi ko'priq vazifasini o'tagan tarjimon tarjima tilida asliyat tilining milliy-madaniy xarakteri haqida to'g'ri tasavvur uyg'otishga xizmat qiladigan muayyan salohiyatga ega bo'lsagina tarjima asar muvaffaqiyat qozonadi.

10. Tarjima qilinishi qiyin bo'lgan birliklarning tarjimasi uchun qayd etilgan bir qator usullar bo'lib, badiiy asarlardagi iks-femik birliklar uchun ulardan analog tanlash, leksik qo'shilmalar qo'shish, kalkalash, transkripsiya, perifriza va parafriza, konkretlashtirish va umumlashtirish, modulyatsiya usullaridan foydalanish mumkinligi ishda aniqlandi.

11. Tarjima usullarining samaradorlik imkoniyati chog'ishtirilishi va tarjimasini belgilovchi omillariga tayanadi. Bunda konkretlashtirish, transkripsiya usullarining samaradorlik darajasi boshqa usullarga qaraganda sust ekanligi ma'lum bo'ldi. Biroq nutqiy vaziyatga ko'ra tarjima jarayoni bu usullardan foydalanishni taqozo etishi mumkin. Mazkur holat iks-femik muhitning butunlay yo'qolib ketishiga olib kelmaydi. Bu usul faqat disfemik birliklar tarjimasida o'z ko'rsatkichiga ega.

12. Iks-femik birliklar tarjimasidagi usullardan unumli foydalanish tarjimonning maqsad tilidan xabardorligiga bog'liq. Tarjimon o'girilayotgan til vakili emas, asliyat tili vakili bo'lganda axborotni qanday uzatish bilan bir qatorda, idrok etilishini ham inobatga olishi muqarrar. Tarjimonning ona tilidagi nozik belgilarga bo'lgan e'tibori tarjima tilida natijalanadi.

13. Tarjima modellari tarjima jarayonini osonlashtiradi, har bir tarjimon model yaratish imkoniyatiga ega. Iks-femik birliklar uchun transformatsion-semiotik, situatsion-denotativ, funksional-pragmatik (dinamik) modellari dunyo tilshunosligida qayd etilgan boshqa modellarga nisbatan samarador ekanligi ishda kuzatildi.

14. O'zbek va rus tillaridagi iks-femik birliklar o'zaro tarjimasining transformatsion-semiotik modeli mavjud transformatsion-semantik modelning isloh etilgan varianti bo'lib, bunda semantika va semiotika tushunchalari o'rtasidagi umumiylik va xususiylik darajasi rol o'ynaydi. Iks-femik birliklar uchun semiotikaning uch: sintaktik, semantik, pragmatik jihati inobatga olinib, tarjima uch bosqichda amalga oshadi – tahlil bosqichi, ko'chirish bosqichi, taqdim etish bosqichi.

15. O'zbek va rus tillaridagi iks-femik birliklar o'zaro tarjimasining nutqiy vaziyat asosiga qurilgan modeli ham bo'lib, uning dunyo tarjimasunosligida nomlanishi turlicha. Mazkur model iks-femik vaziyatda situatsion-denotativ deb atalishga loyiq. Model yadroviy denotat belgining vaziyatga ko'ra leksik qurshovi asosida tarjima jarayonini tashkil etadi. Tarjima matnida mazkur vaziyat uchun yangi denotat hosil qiladi. Chunki vaziyatlarning idrok etilish darajasi tillardagi belgilarga ko'ra farqlanadi. Bunda tilning xususiy belgilari: milliy-madaniy

nomlar, frazeologik-paremiologik belgilaridan tashqari, ijtimoiy-siyosiy qarashlar aks etgan birliklar, omonimik-polisemik iks-femalar ham situatsion yondashuv asosida tarjima qilinishi lozim.

16. O'zbek va rus tillaridagi iks-femik birliklar o'zaro tarjimasining funksional-pragmatik (dinamik) modeli maqsadli nutq birliklariga mo'ljallangan. Iks-femik birliklar esa muayyan maqsadga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Uning kommunikativ, dinamik, pragmatik, skopos kabi nomlar ostidagi ilmiy talqinlari tarjima qilinishi qiyin bo'lgan barcha nutqiy birliklar yuzasidan amalga oshirilgan. Iks-femik birliklar muloqot muhitida o'zgaruvchan (dinamik) xususiyatga ega bo'lib, pragmatik vaziyatni to'la yetkazish muammosi paydo bo'lganda muayyan usullar orqali amalga oshirilgan tarjima mazkur modelga asoslanadi. Unda tarjimadagi birliklarning voqelanishi asliyatdagi kabi maqsadga yo'naltiriladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
ПОД НОМЕРОМ DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

**КАДИРОВА ХУРШИДА БАТИРОВНА**

**ТИПОЛОГИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПЕРЕВОД ЭВФЕМИЗМОВ,  
ДИСФЕМИЗМОВ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО  
ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора филологических наук (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема докторской (DSc) диссертации зарегистрирована в ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.2.DSc/Fil306.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный консультант:** Мухамедова Саодат Худойбердыевна  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Мажидова Рано Уришевна  
доктор филологических наук, профессор

Сиддикова Прода Абдузугуровна  
доктор филологических наук, профессор

Маматов Абдугафур Эшанкулович  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои «20» 12 2024 года в 9.00. Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хас Хаджиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44. ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); электронная почта: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрировано под номером 315). Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хас Хаджиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44).

Автореферат диссертации разослан « 4 » 12 2024 года.  
(Протокол реестра рассылок № 1 от 2024 « 4 » 12 ).



**Ш.С.Сирожидинов**  
Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, академик

**К.У.Пардаев**  
Учредитель секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

**Н.З.Нормуродова**  
Председатель разового научного семинара при учёном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской (DSc) диссертации)

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировом сопоставительном языкознании и переводоведении с 70-х годов прошлого века в высших учебных заведениях были созданы курсы и дисциплины, а также был открыт путь к преподаванию этой области. К XXI веку расширился круг научных исследований, появились такие отрасли перевода, как машинный перевод, синхронный перевод, художественный перевод, научно-технический перевод, а также начались их исследования. Сегодня, когда развитие межкультурной и межрасовой коммуникации возрастает, особенности и решения проблем художественного перевода являются предметом многих научных задач. Она обсуждается на различных конференциях, в том числе на международном уровне, и становится объектом обсуждения наряду с традиционной лингвистической, этнолингвистической, психолингвистической, теорией межкультурной коммуникации. Вообще, как разнообразны типы и виды, стили и методы художественной литературы, так существуют и различные виды деятельности и способы перевода. Значит, и действия по раскрытию аспектов переводоведения различны, и обогащение его классификационных признаков должно стать одной из целей исследователя. Однако, большая часть этих работ выполнена в рамках лексического уровня, а количество исследований, относящихся к переводоведению, связанному с речевыми единицами и переносами, недостаточно, и его изучение с помощью различных подходов ещё ждёт своей очереди. Масштабных работ по переводу *эвфемизмов* и *дисфемизмов* немного, а критерии, закономерности и требования переводческого процесса недостаточно разработаны. Однако можно сказать, что в результате специального изучения этих переносов на каждом национальном языке достигнут большой прогресс. Поскольку явление столь же разнообразно, как и другие языковые единицы, внимание уделяется разным их сторонам, и полученные результаты также различны. Следует отметить, что хотя эти различия могут показаться противоречивыми, на самом деле они дополняют друг друга.

В мировом переводоведении работа в этом направлении началась во второй половине XX века. Это связано с резким увеличением обмена информацией между людьми и народами после окончания Второй мировой войны. Фактически такая информационная атака произошла во всем мире. Сюда входит синхронный перевод, перевод фильмов, радиопередач и телепередач. Уже недостаточно было готовить профессиональных переводчиков по методу «учитель-ученик». Пришло время открывать школы перевода, факультеты высших образовательных учреждений и университетские кафедры по всему миру. Теория перевода как полноценная наука стала привлекать внимание лингвистов. Соответственно, с момента создания объектов научного исследования их анализ и получение научных выводов стали важной задачей лингвистов и переводчиков. Можно сказать, что художественный перевод как комплексная область – интересная наука,

имеющая достаточную основу для различных подходов, точек зрения и научных выводов ученых. Существует необходимость изучения его с лингвистической точки зрения в разных аспектах, то есть изучения на основе речево-коммуникативного, психологического, этимологического, культурологического, философского, религиозного подхода. В русском языкознании лингвистические исследования феномена *эвфемизмов* значительно продвинулись вперед, открыв широкий путь сопоставительному подходу и переводоведению. С XXI века российскими исследователями по теме эвфемизмов защищено около 20 кандидатских диссертаций, что свидетельствует о том, что изучение этого явления развивается.

В Узбекистане после 2000-х годов появились монографические работы по переводоведению и сопоставительной лингвистике по *икс-фемизму*. Изучение их перевода, создание методов и моделей, проведение межкультурных и межъязыковых сопоставлений, серьезный подход к их выражению на другом языке – теперь требование времени, и этот вопрос становится все более актуальным в теории перевода в связи с изучением двух генетически и структурно различных языков. *Эвфемизм* и *дисфемизм* более широко изучались в узбекском языкознании, чем в переводоведении, до сегодняшнего дня ученые систематически изучали его особенности как речевого пласта. Значительно, что выделены его отношение к родственным событиям, его место на языковом уровне, дифференцированы лингвистические и речевые *эвфемизмы*, а также функционально и стилистически классифицированы категории эвфемистического значения. Несмотря на то, что феномен *эвфемизмов* и *дисфемизмов* является малоизученной темой, с точки зрения лингвистики внимание уделяется изучению языковых признаков, случаев появления в речевом процессе того или иного языка, а его сравнение с другим языком, критерии выражения на другом языке, разработка вариантов, альтернатив – одна из задач, стоящих перед переводоведением. Поэтому важно изучить лингвистические, культурные и прагматические аспекты этих двух видов переносов.

